



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 29-35 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

KREDIT RISKI TUSHUNCHASI, IQTISODIY MOHIYATI VA TURLARI



Asadov Qodirjon Nasirovich
O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy
kengash raisi o'rinbosari

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari kompleks tarzda tahlil etilgan. Kredit riski bank faoliyatida ustuvor xavf turlaridan biri sifatida qaralib, u qarz oluvchining o'z kredit majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan noaniqliklarni ifodalaydi. Shu bois, ushbu riskni samarali boshqarish tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda kredit riskini baholashning zamonaviy yondashuvlari, xususan, kredit skoring tizimlari va raqamli texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari asoslab berilgan. Shuningdek, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, uzluksiz monitoring tizimlarini joriy etish hamda asoslangan kredit limitlarini belgilash orqali risklarni kamaytirish imkoniyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Kredit, foiz, moliyaviy vositalar, bank tizimi, kredit portfelini, investor, kredit risklari, ipoteka kreditlari, mikroqarzarlar, avtokreditlar, iste'mol kreditlari, kichik va o'rta biznes, lizing va faktoring, mikrokreditlar, sindisiyalashtirilgan kreditlar.

Аннотация. В данной статье комплексно проанализированы теоретические основы и практические механизмы совершенствования системы управления кредитными рисками в коммерческих банках. Кредитный риск рассматривается как один из приоритетных видов рисков в банковской деятельности и отражает неопределённости, непосредственно связанные со способностью заемщика своевременно и в полном объёме выполнять свои кредитные обязательства. В этой связи эффективное управление данным риском выступает важным фактором обеспечения финансовой устойчивости и ликвидности коммерческих банков. В исследовании обоснованы современные подходы к оценке кредитного риска, в частности, преимущества использования систем кредитного скоринга и цифровых технологий. Кроме того, раскрыты возможности снижения рисков за счёт диверсификации кредитного портфеля, внедрения систем непрерывного мониторинга, а также установления обоснованных кредитных лимитов.

Ключевые слова: Kredit, процент, финансовые инструменты, банковская система, кредитный портфель, инвестор, кредитные риски, ипотечные кредиты, микрозаймы, автокредиты, потребительские кредиты, малый и средний бизнес, лизинг и факторинг, микрокредиты, синдицированные кредиты.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations and practical mechanisms for improving the credit risk management system in commercial banks. Credit risk is considered one of the key types of risk in banking activities and reflects uncertainties directly related to a borrower's ability to fulfill their credit obligations in a timely and full manner.

In this context, effective management of credit risk serves as a crucial factor in ensuring the financial stability and liquidity of commercial banks.

The study substantiates modern approaches to credit risk assessment, particularly highlighting the advantages of using credit scoring systems and digital technologies. Furthermore, it examines opportunities for risk reduction through the diversification of the credit portfolio, the implementation of continuous monitoring systems, and the establishment of well-founded credit limits.

Key words: *Credit, interest rate, financial instruments, banking system, loan portfolio, investor, credit risks, mortgage loans, microloans, auto loans, consumer loans, small and medium-sized enterprises (SMEs), leasing and factoring, microcredits, syndicated loans.*

Kirish.

Bank tizimi va moliya bozorlarida kredit operatsiyalari muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, ular tijorat banklari faoliyatining eng asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kreditlash jarayoni banklarning moliyaviy vositachilik funksiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi, ya'ni banklar vaqtincha bo'sh pul mablag'larini jalb qilib, ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kredit shaklida joylashtiradi. Natijada ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi, investitsion faoliyat faollashadi hamda iqtisodiy o'sish uchun zarur moliyaviy resurslar shakllantiriladi. Shu jihatdan kredit operatsiyalari nafaqat banklarning daromad manbai, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim moliyaviy instrumentlardan biri sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari daromadlarining salmoqli qismi aynan kreditlash operatsiyalari orqali shakllanadi. Kreditlar bo'yicha olinadigan foiz daromadlari bank foydasining asosiy qismini tashkil etadi. Shuningdek, kreditlash jarayonida banklar turli komissiya to'lovlari, xizmat haqlari hamda boshqa moliyaviy tushumlar orqali qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli banklar kredit portfelini kengaytirish, kreditlash hajmini oshirish va kredit resurslaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratadilar.

Biroq kredit operatsiyalari o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum darajadagi tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, ushbu tavakkalchilik bank faoliyatida kredit riski sifatida namoyon bo'ladi. Kredit riski qarz oluvchining o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmasligi, ya'ni kreditning asosiy summasi yoki foiz to'lovlarini belgilangan muddatda qaytarmasligi ehtimoli bilan bog'liq moliyaviy xavfni anglatadi. Bunday holat bank aktivlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, bankning daromadliligi pasayishiga olib kelishi hamda moliyaviy barqarorlikka tahdid solishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Kredit riski bo'yicha xorijiy olimlarning fikrlarida bu sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy jihatlari keng yoritilgan. Kredit riski tushunchasi, iqtisodiy mohiyati va turlari haqida bir qator tadqiqotlar olib borilgan va borilmoqda. Ushbu masala bo'yicha xorijlik olimlardan O.I.Lavrushin, K.J.Holtzmann, M.S.Blackwell, R.W.Jackson, A.R.Miller, B.M.S. Tan, A.Butovskiy, A.P.Malshinskiy, F.A.Brokgauz va A.I.Efron kabilarni kiritish mumkin. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh. Abdullayeva [2], A. Omonov,

O.Sattarov, F. Karimov, K. Navro'zova, U. Ortiqov va boshqalar [3] ham shu sohani rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ishida kredit riskining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish, uning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda turlarini tizimli ravishda tasniflash maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, xususan, Moliya nazariyasi va Bank ishi doirasidagi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Shuningdek, kredit riskini baholash va boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalar, jumladan Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

Tahlil va sintez usuli – kredit riski tushunchasining tarkibiy elementlarini ajratib ko'rsatish va ularni yagona tizimga keltirish uchun qo'llanildi. Ushbu usul yordamida kredit riskining iqtisodiy mohiyati va uning asosiy omillari aniqlashtirildi.

Taqqoslash usuli – turli mamlakatlar bank tizimlarida kredit riskini boshqarish amaliyotini o'zaro solishtirish orqali ilg'or tajribalarni aniqlashda qo'llanildi.

Statistik tahlil usuli – kredit portfeli sifatini baholash, muammoli kreditlar ulushini aniqlash hamda kredit riskining dinamikasini o'rganishda foydalanildi.

Tizimli yondashuv – kredit riskini bank faoliyatining ajralmas qismi sifatida kompleks ko'rib chiqish imkonini berdi. Bu yondashuv kredit riskining boshqa moliyaviy risklar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi.

Ekspert baholash usuli – bank mutaxassislari va moliya sohasi ekspertlarining fikrlarini umumlashtirish orqali kredit riskining amaliy muammolari va ularni kamaytirish yo'llari aniqlandi.

Tadqiqotning empirik bazasini tijorat banklari faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar, Markaziy bank hisobotlari hamda xalqaro moliya institutlari materiallari tashkil etdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari kredit riskining milliy iqtisodiyotdagi holatini tahlil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Mazkur metodologiya kredit riskining nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, uning iqtisodiy mohiyatini ochib berish hamda amaliy jihatdan samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish imkonini beradi.


Tahlil va natijalar

Taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, tijorat banklari aktivlar portfelining puxta va sifatli shakllantirilishi ularning moliyaviy barqarorligi hamda yetarli darajadagi likvidligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Kredit portfelini samarali boshqarish nafaqat bank rentabelligini oshirishga xizmat qiladi, balki moliya bozorida ishonchlilik va barqarorlikni ta'minlovchi asosiy indikator sifatida ham namoyon bo'ladi.

Kredit portfelini oqilona boshqarish bankning umumiy strategik faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Bir tomondan, banklar investor sifatida yuqori daromad keltiruvchi moliyaviy instrumentlarni tanlash orqali portfelni diversifikatsiya qilishga intiladilar. Ikkinchi

tomondan esa, ular risklarni minimallashtirish orqali muammoli kreditlarning yuzaga kelish ehtimolini kamaytirishga harakat qiladilar.

Shu bois, kredit portfelini boshqarish ikki asosiy vazifani bajaradi: daromadlilikni ta'minlash va risk darajasini pasaytirish. Mazkur jarayonda kreditlar sifatini baholash, ularni to'g'ri klassifikatsiya qilish, kredit risklari bo'yicha zaxiralarni shakllantirish hamda portfel monitoringini tizimli ravishda amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i¹

Keltirilgan ma'lumotlar asosida 2025–2026 yillar oralig'ida kreditlash faoliyatida sezilarli ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgani aniqlanadi. Jumladan, jami kredit qoldig'i 533 121 mlrd so'mdan 604 002 mlrd so'mga yetib, 13 foizga oshgan. Bu bank tizimining iqtisodiyotga kredit qo'yilmalarini kengaytirayotganini hamda moliyaviy faollik ortib borayotganini ko'rsatadi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi 24 foizga o'sib, aholining kredit mablag'lariga bo'lgan talabi kuchayganini bildiradi. Ayniqsa, ipoteka kreditlari (17%) va mikroqarzarlar (15%) barqaror o'sish dinamikasiga ega bo'lib, uy-joy va kichik moliyaviy ehtiyojlarni qondirishda kreditlash muhim rol o'ynayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ayrim yo'nalishlarda pasayish kuzatilgan. Xususan, avtokreditlar (-1%) va boshqa iste'mol kreditlari (-13%) qisqargan bo'lib, bu aholining iste'mol xarajatlari tarkibida ehtiyotkorlik kuchayganini yoki ushbu segmentlarda talab nisbatan susayganini anglatishi mumkin.

Eng yuqori o'sish tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlarda (107%) hamda boshqa kreditlarda (232%) kuzatilgan. Bu esa iqtisodiyotda biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va yangi loyihalarni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi. Ta'lim kreditlarining 18 foizga oshgani esa inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiyalar ortib borayotganidan dalolat beradi.

¹Markaziy bankning www.cbu.uz ramiy sayti ma'lumotlari asosid tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi

Umuman olganda, tahlil natijalari kredit portfelining diversifikatsiyalashuvi, real sektorni qo'llab-quvvatlash va aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi oshib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim iste'mol kreditlari segmentlarida pasayish tendensiyasi mavjud bo'lib, kelgusida kredit siyosatini muvozanatlash va risklarni boshqarish zarurligini taqozo etadi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish darajasini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu ko'rsatkich orqali korxonalar va tashkilotlarning investitsion faolligi, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish imkoniyatlari hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir etuvchi moliyaviy resurslar holatini baholash mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuridik shaxslarni kreditlash tizimi bank-moliya sektorining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu kreditlar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim moliyaviy manba vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi va uning dinamikasi iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Mazkur yo'nalishda kredit qoldig'ining o'zgarishini tahlil qilish orqali moliyaviy resurslarning taqsimlanish samaradorligi, iqtisodiyot tarmoqlarining kreditga bo'lgan talabi hamda banklar tomonidan olib borilayotgan kredit siyosatining ustuvor jihatlari aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichni o'rganish kredit risklarini boshqarish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkonini beradi.

1-jadval

Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i²

Ko'rsatkich nomi	01.01.2025 y.	01.01.2026 y.	O'zgarishi (foizda)
Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	330 211	359 777	9%
Lizing va faktoring	2 767	3 842	39%
Banklararo kreditlar	715	653	-9%
Mikrokreditlar	17 111	14 680	-14%
Sindisiyalashtirilgan kreditlar	4 785	4 768	-0,3%
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	355 589	383 720	8%

Tahlil qilinayotgan davrda yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi va tarkibida ijobiy, shu bilan birga ayrim muvozanatli o'zgarishlar kuzatilgan. Umumiy holda, yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i 355 589 mlrd so'mdan 383 720 mlrd so'mga oshib, 8 foizlik o'sishni namoyon etgan. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishda bank tizimining faolligi ortib borayotganini bildiradi.

Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar 9 foizga o'sib, asosiy ulushni tashkil etishda davom etmoqda. Bu esa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish

²Markaziy bankning www.cbu.uz ramiy sayti ma'lumotlari asosid tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi

va boshqa real sektor tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, lizing va faktoring operatsiyalarining 39 foizga keskin oshgani moliyalashtirishning muqobil shakllari kengayib borayotganidan dalolat beradi hamda korxonalar uchun aylanma mablag'larni boshqarish imkoniyatlari yaxshilanayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, ayrim segmentlarda qisqarish kuzatilgan. Xususan, banklararo kreditlar 9 foizga, mikro kreditlar esa 14 foizga kamaygan. Bu holat bank tizimida likvidlikni ichki boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi yoki kichik biznes segmentida kreditlash siyosatining ehtiyotkorlik bilan olib borilayotganini bildirishi mumkin. Sindisiyalashtirilgan kreditlar hajmining deyarli o'zgarishsizligi (-0,3%) esa yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirishda barqarorlik saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yuridik shaxslarga kredit ajratish tizimi diversifikatsiyalashib borayotgan bo'lib, unda an'anaviy kreditlash bilan bir qatorda lizing va faktoring kabi zamonaviy moliyaviy instrumentlarning roli ortib bormoqda. Biroq ayrim kredit yo'nalishlaridagi pasayishlar banklar tomonidan risklarni boshqarish siyosatini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida kredit portfelining sifatini oshirish, real sektorni qo'llab-quvvatlashni davom ettirish va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Kredit riski - bu qarz oluvchining o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarmasligi natijasida moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelish ehtimolini ifodalovchi muhim iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning iqtisodiy mohiyati banklar va boshqa moliya institutlari faoliyatida risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurati bilan bevosita bog'liqdir. Kredit riski nafaqat alohida bankning moliyaviy barqarorligiga, balki butun bank tizimi va makroiqtisodiy muhitga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit riskining shakllanishiga qarz oluvchining moliyaviy holati, bozor kon'yunkturasi, foiz stavkalari o'zgarishi, inflyatsiya darajasi hamda boshqaruv samaradorligi kabi omillar ta'sir qiladi. Kredit riskining asosiy turlariga individual (qarz oluvchi bilan bog'liq), portfel (kreditlar umumiy tuzilmasi bilan bog'liq), tarmoq (muayyan iqtisodiy soha bilan bog'liq) va mamlakat riski kiradi. Shuningdek, ta'minot riski, likvidlik riski va foiz riski bilan uzviy bog'liqligi ham kuzatiladi.

Zamonaviy sharoitda kredit portfelining diversifikatsiyalashuvi, yangi moliyaviy instrumentlarning (lizing, faktoring, sindisiyalashtirilgan kreditlar) kengayishi kredit riskining murakkablashuviga olib kelmoqda. Shu sababli, kredit riskini samarali boshqarish banklar faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

Quyidagi xulosalar asosida tegishli ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar tizimi ishlab chiqildi.

1. Kredit riskini baholash tizimini takomillashtirish. Banklarda zamonaviy skoring modellari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida kreditga layoqatlilikni aniqlash tizimlarini joriy etish zarur.

2. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish. Kreditlar tarmoqlar, hududlar va mijoz segmentlari bo'yicha muvozanatli taqsimlanishi kredit riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Risk-menejment tizimini kuchaytirish. Banklarda kredit riskini aniqlash, monitoring qilish va minimallashtirishga qaratilgan ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

4. Ta'minot (garov) mexanizmlarini mustahkamlash. Kreditlar bo'yicha garov qiymatini real baholash va uning likvidligini oshirish orqali yo'qotishlar darajasini kamaytirish mumkin.

5. Problemalı kreditlar bilan ishlashni takomillashtirish. NPL (non-performing loans) darajasini pasaytirish uchun restrukturizatsiya, refinanslash va suddan tashqari kelishuv mexanizmlarini kengaytirish zarur.

6. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda ehtiyotkor yondashuv Ushbu segmentda kreditlashni kengaytirish bilan birga, risklarni sug'urtalash va davlat kafolatlari mexanizmlarini rivojlantirish muhim.

7. Xalqaro standartlarni joriy etish. Kredit riskini boshqarishda Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan Basel II va Basel III standartlarini amaliyotga keng tatbiq etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2021–2024). Bank risklarini boshqarish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent.

2. "Bank ishi" Darslik / Sh.Z. Abdullaeva, U.O'.Azizov; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019.

3. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2018.

4. www.cbu.uz sayt ma'lumotlari

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

